

TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Yuldasheva Nazokat Gulomjonovna

Urgench State University

The faculty of Foreign Philology lecturer.

Moon752_light@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy texnologiyalardan ta'lif jarayonida foydalanishning ahamiyatini yoritadi. Texnologiyalar orqali ta'lif jarayoni interaktiv, samarali va qiziqarli bo'ladi. Masofaviy ta'lif, elektron darsliklar va mobil ilovalar kabi vositalar ta'lif sifatini oshiradi va o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy yondashuv, ta'lif texnologiyasi, CEFR, platforma, raqamli texnologiya, mobil ilovalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 19-may 2021-yildagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ham "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lif siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushu yo'nalishda ta'lif sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishi yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Chet tili fani to'rt aspektga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Xorijiy tillarni o'qitishda ilg'or zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Zero ta'lifjarayonida texnologik vositalardan foydalanish chet



tillarini o'rganishning har bir bo'limida bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlashda beqiyos rol o'yndaydi. Masalan, tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishni kompyuter, player, CD disklarsiz amalga oshirish imkonsiz. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Bugungi globallashuv jarayonida internet hayotimizning har bir jabhasini qamrab olgan. Yosh avlod orasida ijtimoiy tarmoqlardan, turli saytlardan chet tillarini o'rganishda oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnologik rivojlanish ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va interaktiv qilishga yordam bermoqda. An'anaviy dars metodlaridan farqli o'laroq, zamonaviy texnologiyalar orqali o'quv jarayoni yanada interaktiv bo'ladi. Masalan, taqdimotlar, video darslar va simulyatsiyalar yordamida o'quvchilar mavzuni osonroq tushunishlari va faol qatnashishlari mumkin. Bu usul o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi va darsni qiziqarli qiladi. Internet va raqamli qurilmalar orqali masofaviy ta'limga kirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu ayniqsa pandemiya davrida dolzarb bo'ldi. Talabalar o'z uylaridan chiqmasdan turib, dunyoning istalgan joyidagi ta'lim dasturlaridan foydalanishlari mumkin. Bu ta'lim olishdagi geografik cheklovlarini bartaraf etadi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilar kerakli ma'lumotlarga tezkor kirish imkoniyatiga ega. Onlayn darsliklar, ilmiy maqolalar va ta'limiy videolar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirishlari mumkin. Bu esa ularning mustaqil o'qish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanadir. Har bir o'quvchining bilim olish sur'ati va usuli farqli. Zamonaviy texnologiyalar ta'limni individuallashtirish imkonini beradi. Masalan, maxsus dasturlar va ilovalar orqali har bir o'quvchi o'z bilim darajasiga mos ravishda o'qib, qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi.

Zamonaviy texnologiyalarni ta'limda qo'llash usullari

1. Elektron darsliklar va platformalar

Onlayn ta'lim platformalari va elektron darsliklar ta'limning samaradorligini oshiradi. Masalan, "Google Classroom", "Moodle" kabi platformalar orqali o'qituvchilar topshiriqlarni berishlari, o'quvchilar esa ularni bajarib topshirishlari mumkin. Bunda ta'lim jarayoni tezkor va tartibli bo'ladi.



2. Virtual va kengaytirilgan moslamalar

Virtual (VR) va kengaytirilgan moslama (AR) texnologiyalari yordamida o‘quvchilarni haqiqiy hayotga yaqinlashtiradigan muhitlar yaratiladi. Bu, ayniqsa, ilm-fan, tibbiyot va texnologiya sohalarida qo‘llaniladi. Masalan, VR orqali biologiya darsida inson tanasi tuzilishini o‘rganish yanada samarali bo‘ladi.

3. Mobil ilovalar

Ta'limga mo‘ljallangan mobil ilovalar o‘quvchilarga darsdan tashqari vaqtarda ham bilim olish imkoniyatini beradi. Masalan, til o‘rganish uchun mo‘ljallangan dasturlar va boshqa ko‘plab vositalar o‘quv jarayonini to‘ldiradi. Bugungi kundagi “Ibrat Maktabi” platformasi buning yaqqol namunasi deb ayta olaman.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil qilish zamon talablaridan biridir, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi ham shunga monand bo‘lib, bugungi kunda darslarni ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ingliz tilini maxsus maqsadlarda boshqa soha vakillariga o‘qitishning samarali yo’llaridan biri ham aynan ushbu texnologiyalardan fordalanishdir. Shifokirlarlar, Iqtisoqchilar, Muhandislar va boshqa boshqa soha vakillari hozirda Ingliz tilini o‘zlashtirish orqali Jahon bozori va ilmiy sohalarda bir qator yutuqlarni qo‘lga kiritib o‘z o‘rinlariga ega bo‘lib kelmoqdalar.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamanki, zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Ular orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayoni tezlashadi, qiziqarli va oson bo‘ladi. Masofaviy ta’lim, elektron darsliklar, virtual reallik va mobil ilovalar kabi zamonaviy vositalar ta’limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Texnologiyalardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va bilim olishga yanada rag‘batlantiradi. Shu sababli, ta’limda texnologiyalardan foydalanish dolzarb va zaruriy hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adizov, B. (2020). Zamonaviy texnologiyalardan ta’lim jarayonida foydalanish. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Normurodov, Sh. (2019). Raqamli texnologiyalarning ta’limdagи o‘rni. Toshkent: Innovatsion Ta’lim Nashriyoti.
3. Karimov, A. (2021). Masofaviy ta’lim va uning imkoniyatlari. Samarqand: Ilmiy Nashriyot.

Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th October - 2024

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

- 
4. Yusupov, N. (2018). Ta'lim jarayonida texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari. Nukus: Qoraqalpog'iston Universiteti Nashriyoti.
 5. Tursunova, Z. (2022). Virtual reallik va uning ta'limdagi ahamiyati. Andijon: Andijon Davlat Universiteti Nashriyoti.

E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

E-CONFERENCE
SERIES